RESEARCH FOCUS
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

# TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI MEVA VA GULLARDAN NATYURMORT ISHLASHGA O‘RGATISH

**Sattarov Axrorbek Nodirjon o‘g‘li**
**Namangan davlat pedagogika inistituti**
**Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf tasviriy san’at darslarida meva va gullardan natyurmort ishlashga o‘rgatish va asarlari bilan tanishtirish, tasviriy asarlarini taxlil qilish va ta’lim-tarbiya jarayonlarida foydalanish yo‘llari ko‘rsatilgan. Bu orqali bolalarda natyurmort janri orqali ushbu janrga bo‘lgan qiziqish uyg‘otish kabi muhim vazifalar amalga oshiriladi. Maqolada natyurmort janri bilan tanishtirish orqali ta’lim-tarbiya berish *muhimligi ham nazarda tutilgan.*

**Tayanch so‘zlar:**. tasviriy san’ati, musavvir, natyurmort, ta’lim-tarbiya, janr, asarlarini taxlil qilish, jarayonlar, vazifalar, san’atni idrok etish.

## KIRISH

So‘ngi yillarda yurtimizda tasviriy san’atga shu bilan birga tasviriy san’at darslarini qiziqarli, mazmunli hamdainnovatsion usullar asosida tashkil etish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘quvchilarga тasviriy san’at turlari va janrlarni bilan tanishtarish va o‘rgatish, тasviriy san’at va uning ustalari hamda ijodlariga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘quvchi-yoshlarimizni har tomonlama bilimli, salohiyati, vatanparvar, ma’nan yetuk bo‘lib tarbiylanishlarida tasviriy san’atining o‘rni beqiyosdir. O‘quvchi-yoshlar bunday mas’uliyatli vazifani bajarish uchun ularning erkin ijodiy mehnatga, rivojlanishi, ijodiy bunyodkorligiga bizlar keng imkoniyatlar, sharoitlar yaratib berishimiz lozim. Xaqiqatan ham hozirgi kunda mamlakatimizda tasviriy san’atni o‘rganishdek muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Milliy Tasviriy san’at va janrlariga bo‘lgan e’tibor orqali ijodkor zamonaviy yoshlarni tarbiyalash vazifasi yuklanadi.

## ADABİYOTLAR TAHLİLİ

O‘quvchilarida тasviriy san’at janrlaridan biri bo‘lgan natyurmort janri bilan ishlashga o‘rgatish orqali ko‘nikma va malakalarni shakllantirish dolzarb va muhim masalalardan biridir. Ushbu maqola uchun adabiyotlar tahlilini tayyorlashda quyidagi yondashuvlarni ko‘rib chiqishingiz mumkin: mutaxassislardan S.F Abdirasulov, B.Oripov, Sh.M.Mamatqulov, R.Xasanov, B. Boymetov, XH.Egamovlar o‘rganganlar hamda ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ular Tasviriy san’at darslarida natyurmort janri va o‘qitish yo‘llari borasida tadqiqot olib borib, o‘z tavsiyalarini berdilar.

Xorij Jan Batist Simeon Sharden, Frans Snayders, Piter Klas, Vinsent van Gog, Pol Sezann va Yans de Xem kabi Xorij odkorlari natyurmort san'atini yuksak darajaga ko'targan.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Maqolada o'quvchilarni tasviriy san'ati turlari, janrlari, ustalari hayoti va ijodi bilan maktab tasviriy san'at darslarida tanishtirish oqali ijodkor, barkamol shaxsni tarbiyalash hamda bu orqali tasviriy san'at darslari jarayonlarini tashkil etishga qaratilgan vazifalar muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. Ta'lim jarayonlarida o'quvchilarni tasviriy san'at turlari va janrlari ayniqsa natyurmort janri hamda asarlarini o'rganish, idrok qilish, rassomlar asarlaridan darslar va ta'lim-tarbiya jarayonlarida foydalanish, rasmlar orqali natyurmort (meva va gullardan) o'rganish va rivojlantirish mezonlari tahlili qilindi va mezonlar bilan solishtirildi.

**TAHLIL VA NATIJALAR**




Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarning ijodkorligini oshiradi, idrokini, tasavvurini kengaytiradi. O'quvchilar oddiy narsalardan yangi g'oyalar yaratishni hamda loyihalashni o'rganadilar. Tasviriy san'at orqali o'quvchilar go'zallikni ko'ra oilish, ranglar bilan ishlash va atrof-muhitni idrok qilish va asrab-avaylashni o'rganadi.

O'quvchilar rasm chizish jarayonida diqqatni jamlash, mayda detallargacha e'tibor bilan ishlash va sabr-toqat bilan ishlash ko'nikma va malakalari rivojlanadi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari o'quvchilarga o'z his-tuyg'ularini chizgilar hamda ranglar bilan ifodalash imkonini beradi. Bu esa ularning ichki dunyosini boyitadi va ruhiy holatini yaxshilaydi. Tasviriy san'at orqali o'quvchilar o'zbek hamda turli xalqlarning san'ati va tarixini bilib boradi. Masalan, Renessans davri tasviriy san'at asarlarini o'rganish orqali o'quvchilar san'at tarixiga oid bilimlari ham ortadi. Atrofdagi narsa va buyumlarni (masalan, meva va gullardan natyurmort) chizish orqali o'quvchilar narsa va buyumlarni sinchiklab kuzatishn malakalari ortadi.

Tasviriy san'atda aniq "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" yo'q — bu o'quvchilarga erkin fikrlash, falsafiy dunyoqarashlarini shakllantirishga yordam beradi.

Natyurmort fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, *nature oorte* ("jonsiz tabiat") degan ma'noni anglatadi. Natyurmort rassom uchun muhim — u rang, shakl, perespektiva, kompozitsiyani tuzish va o'rganishga yordam beradi [5].



**Natyurmort** — tasviriy san’at janlaridan bo‘lib, unda odatda jonsiz buyumlar tasvirlanadi. Masalan natyurmort asarlarida ko‘pincha meva va saboavotlar, gullar, idish-tovoqlar, kitoblar, musiqa asboblari, kundalik hayot buyumlari, tulumlar kiradi.

Natyurmort janri ayniqsa Gollandiya va Ispaniya, Italiya, Frantsiyada juda rivojlangan. Ushbu davr rassomlari narsa va buyumlarni juda xaqqoniy tarzda tasvirlaganlar. Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarga natyurmort janrida ijod qilgan mashhur musavvirlar ishlari haqida qisqacha ma’lumot berish (qiziqtirish) (1-rasm).

Natyurmort janrida ijod qilgan mashhur musavvirlardan Vincent van Gogh (gullar natyurmortlari bilan mashhur), Paul Cezanne (olmalar bilan ishlari mashhur), Caravaggio (yorug‘lik va soyani mahorat bilan ishlatgan).



**1-rasm. Meva va gullardan natyurmort asarlari**

Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarni meva va gullardan natyurmort ishlashga o‘rgatish bosqichma-bosqich va tizimli yondashuvni qiladi. O‘quvchilarga natyurmort tushunchasini oddiy qilib izohlash yani, jonsiz buyumlarni tasvirlash sanati ekanligini tushintiriladi. Meva va gullardan tuzilgan natyurmortlarning namunalarini ko‘rsatish (2-rasm).



**2-rasm. Natyurmortlarning namunalari.**

Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida quyidagi kompozitsiya tuzishni o‘rgatiladi. Stol ustiga mevalar (olma, banan, uzum) va gullarni to‘g‘ri joylashtirish.Yorug‘lik qayerdan tushayotganini aniqlash. O‘quvchilarga narsalarni qog‘ozda qanday

joylashtirishni tushuntirish yani, markaziy obyektni tanlash va proporsiyani saqlash kabi vazifalar bajariladi [3].

Natyurmortlar ishlashda avvalo oddiy geometrik shakllardan boshlash (kvadrat, doira, oval, silindr, konus, peramida). Ushbularni qalam tasvir, rang tasvirda ishlanadi.

Avvalo yengil chiziqlar bilan eskiz chizib olinadi. O'quvchilarga qalamga bosim bermasdan, xatodan qo'rqmaslikni tushuntiriladi. So'ngra rang berish texnikasi ustida ishlanadi. Ranglarni to'g'ri tanlash va aralashtirishni o'rgatish, mevalarning tabiiy rangini kuzatish, yorug' va soya qismlarini ajratish, akvarel, guash yoki rangli qalamlardan foydalanish usullarini ko'rsatib boriladi.

So'ngra yorug'-soya ustida ishlashlanadi. Hajm berish uchun soyalarni qo'shish. Yorug'lik tushgan joylarni ochiq rangda qoldirish. O'quvchilarga realistik tasvir hosil qilishni tushuntirish.

***Natyurmortga yakuniy ishlov va aahlil***. Ishlarni ko'rib chiqish va muhokama qilib, har bir o'quvchining ishiga ijobiy fikr bildirish. Kamchiliklarni asta-sekinlik bilan ko'rsatish va takomillashtirish yo'llarani tushintirish.

Darslarda yangi ilg'or pedagogak tajribalardan foydalanib natyurmort ishlash darslarini tashkil etish lozim. Masalan "Chaqiriq", "Klaster", "Ruchka stol ustida" kabi ko'plab metedlardan foydalanib mashg'ulotlarni olib borish maqsadga muvofiqdir. Masalan, guruh bilan ishlash "Kim eng chiroyli kompozitsiya tuzadi?" kabi kichik tanlov tarzidagi musobaqali darslarni misol qilish mumkin.

Mevalar va gullardan natyurmort ishlashga doir mustaqil ijodiy ishlar berib boriladi. Bunda o'quvccilar o'zlari mustaqil tarzda turli narsalardan natyurmort tuzadilar va chizadilar. O'quvchilar hayurmort ishlashda oddiydan murakkabga o'tish, ko'proq amaliy mashg'ulotlar tashkil qilish, to'garaklar tashkil qilish, o'quvchilarning ijodkorligini qo'llab-quvvatlash.

**XULOSA**

Xulosa qilib atganda tasviriy san'at ta'limi jarayonlarida musavvirlar hayoti va ijodi bilan tanishtirish, yaratgan asarlari va ijod faoliyatini keng o'rganilishi muhim va dolzarb vazifalardan biridir. Rassomlar asarlarini o'rganish, idrok qilish, davom ettirish yosh avlodnig burchi bo'lishi lozim. Bu esa tasviriy sanatga bo'lgan e'tibordir.

Tasviriy san'at o'quvchilarning nafaqat ijodiy, balki intellektual, hissiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli u maktab ta'limida zarur fanlardan biri hisoblanadi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlari jarayonlarida o'quvchilarni natyurmort ishlashga bo'lgan ko'nikma va malakalarini oshiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. S.F. Abdirasulov. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi.

2. S.S. Abdullayev. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.T.2014.
3. A.X. Mamatov. Rangtasvir va chizmachilikdan o'quv-uslubiy ko'rsatma.T.2018.
4. Р.А. Худайберганов. Рангшунослик ва композиция асослари. Ўқув қўлланма. Т.2019.
5. https://www.google.com/search?q=mevava+gullardan+natyurmort+ishlash&.
6. Komoldinov, S. J. O. (2026). The pedagogical significance of composition in pencil drawing lessons. *European Journal of Economic Dynamics and Policy*, *2*(1), 21-24.
7. Komoldinov, S. J. O. G. L., & Isaboyeva, M. I. Q. (2026). Manzara janrini o 'rgatishda rangtasvir texnikalarining metodik qo 'llanilishi. *Science and Education*, *7*(2), 344-349.
8. Jomoldin o'g'li, K. S. SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT.
9. Komoldinov, S. (2023, December). Qalamtasvir mashg'ulotlarida kompozitsiyaning ahamiyati. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:"Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions"* (Vol. 1, No. 01).
10. Rakhimov, K. (2023). The place of graphics in the fine arts. *Solution of social problems in management and economy*, *2*(2), 5-8.
11. Rakhimov, K. (2023). THE ROLE OF PORTRAIT ARTISTS IN FINE ARTS. *Models and methods in modern science*, *2*(2), 13-19.
12. Rakhimov, H. U. (2023). ANALYZING THE PROFESSIONAL QUALITIES OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS BASED ON ART STUDIES. *Экономика и социум*, (1-1 (104)), 50-53.
13. Pulatov, D. S., & Kh, R. U. (2019). On fine arts and its varieties. *Вестник магистратуры*, (4-4 (91)), 89-90.
14. ogli Rakhimov, H. U. AJMR. *AJMR*.
15. Oripov, B. B. (2025). Ideals of the third renaissance and their artistic expression in the fine art of Uzbekistan. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, *1*(8), 28-32.
16. Oripov, B. B. (2025, December). INCREASING THE SCIENTIFIC COMPONENT OF THE ART OF POTTERY IN STUDENTS. In *International Conference Platform* (No. 6, pp. 134-137).
17. Oripov, B. B. (2025). The connection of fine arts to biological science. *Science and Education*, *6*(12), 621-626.
18. BADIRJANOVICH, O. (2020). THE ROLE OF CERAMICS IN PROFESSIONAL TRAINING OF YOUNG PEOPLE IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. *THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE AND EDUCATION INNOVATIONS Учредители: The USA Journals*, *2*(9), 447-451.
19. Oripov, B. (2025). O 'QUVCHILARNING RUHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA VA TARBIYALASHDA, XALQ AMALIY SAN'ATINING O 'RNI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, *2*, 4-3.
20. Oripov, B. N. (2008). Tasviriy san'at ta'limida didaktika.
21. Oripov, B. N. (2006). Fine art and its teaching methodology. *Tashkent-2005." SCIENCE-INTELLIGENCE*.
22. Oripov, B. (2004). Jahon san'ati tarixi. 3 qismli.
23. Oripov, B. (2004). San'at tarixidan qisqacha izohli lug'at.

24. Yuldashev, J. (2024). BO ‘LAJAK TARIX O ‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONIGA AKSIOLOGIK YONDASHUVNI JORIY ETISHNING METODIK XUSUSIYATLARI. Farg'ona davlat universiteti, (5), 6-6.
25. Yuldashev, J. (2024). BOʻLAJAK TARIX Oʻ QITUVCHILARIDA AKSIOLOGIK POZITSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 1(9).
26. Yuldashev, J. BO ‘LAJAK TARIX O ‘QITUVCHILARINING AKSIOLOGIK POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. DENE TÁRBIYASÍ HÁM SPORT, 251.
27. Ogli, Y. J. A. The Content of the Introduction of the Development of the Axiological Approach in Future History Teachers. JournalNX, 10(10), 34-38.
28. Yuldashev, J. (2024). DEVELOPING THE AXIOLOGICAL POSITION OF FUTURE HISTORY TEACHERS–AS AN IMPORTANT DIRECTION OF HISTORY EDUCATION. Академические исследования в современной науке, 3(50), 33-36.
29. Abdurakhimovich, Y. J. (2024, December). THE MAIN CRITERIA FOR DEVELOPING A SYSTEM OF VALUES IN THE TRAINING OF FUTURE HISTORY TEACHERS. In International Conference on Economics, Finance, Banking and Management (pp. 201-205).
30. Abdurakhimovich, Y. J. (2024, December). THE MAIN CRITERIA FOR DEVELOPING A SYSTEM OF VALUES IN THE TRAINING OF FUTURE HISTORY TEACHERS. In International Conference on Economics, Finance, Banking and Management (pp. 201-205).
31. Yuldashev, J. (2024). DEVELOPING THE AXIOLOGICAL POSITION OF FUTURE HISTORY TEACHERS–AS AN IMPORTANT DIRECTION OF HISTORY EDUCATION. Академические исследования в современной науке, 3(50), 33-36.
32. Ogli, Y. J. A. The Content of the Introduction of the Development of the Axiological Approach in Future History Teachers. JournalNX, 10(10), 34-38.
33. Abdurakhimovich, Y. J. (2024, December). THE MAIN CRITERIA FOR DEVELOPING A SYSTEM OF VALUES IN THE TRAINING OF FUTURE HISTORY TEACHERS. In International Conference on Economics, Finance, Banking and Management (pp. 201-205).
34. Yuldashev, J. (2024). DEVELOPING THE AXIOLOGICAL POSITION OF FUTURE HISTORY TEACHERS–AS AN IMPORTANT DIRECTION OF HISTORY EDUCATION. Академические исследования в современной науке, 3(50), 33-36.
35. Ogli, Y. J. A. The Content of the Introduction of the Development of the Axiological Approach in Future History Teachers. JournalNX, 10(10), 34-38.
36. Odilboyeva, U. Z. (2025, December). The scientific and pedagogical influence of teacher cognition theory on method selection in the educational process. International Conference Platform, 6, 152–157.
37. Odilboyeva, U. Z. Q. (2026). O ‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA TERMINLAR HOSIL BO ‘LISHINING QIYOSIY TAHLILI. *Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi*, (1), 32-36.
38. Odilboyeva, U. Z. (2026, January). THE DEVELOPMENT OF AUTOPEDAGOGICAL COMPETENCE IN STUDENTS DURING ENGLISH LANGUAGE EDUCATION. In *Claritas Conference Platform* (No. 1, pp. 90-93).

39. Yunusov, G. O. (2026). TALABA-YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA XALQ FOLKLOR SAN'ATINING O 'RNI. *Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi*, (3), 58-62.
40. Rakhimov, H. U. (2026, January). THE SIGNIFICANCE OF AUTOPEDAGOGICAL COMPETENCE IN VISUAL ARTS EDUCATION. In *Claritas Conference Platform* (No. 1, pp. 30-34).
41. Umarjon ogli, H. R. (2021). Technologies for improving composition and drawing skills based on the rules of composition. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 765–767.